

INSON ORGAN VA TO`QIMALARINI TRANSPLANTATSIYA QILISH

Sheraliyeva Nilufar Hayrulla qizi

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Davolash Ishi Fakulteti Talabasi

Annotatsiya-Mustaqil Respublikamizda 2018-yil 11-iyun kuni “Inson organlari, to‘qimalari va hujayralarini transplantatsiya qilish to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi. Yangi qonunga ko‘ra transplantatsiya amaliyotlari Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy jarrohlik markazi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, Toshkent shahar nefrologiya shifoxonasida amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugun O‘zbekistonda o‘n minglab bemorning organ va to‘qimalar transplantatsiyasiga ehtiyoji bor. Xususan, buyrak transplantatsiyasiga 3,5 minggacha, jigar transplantatsiyasiga 2 minggacha, yurak transplantatsiyasiga 700-1000 gacha, o‘pka transplantatsiyasiga 500 gacha bemor muhtoj.

KIRISH

Transplantatsiya — odam va hayvonlarda patologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qimalar va organlar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tqazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma‘lum. Teri, muskul, nervlar, ko‘zning muguz pardasi, yog‘ va suyak to‘qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko‘chirib o‘tqaziladi. Qon quyish — T.ning alohida turi.

Ko‘chirib o‘tqaziladigan to‘qima yoki organ kimdan olinganiga qarab transplantantlar quyidagicha farqlanadi:

1. **Autotrasplantat- bemorni o‘zidan o‘ziga**
2. **Allotrasplantat-odamdan odamga**
3. **Ksenotrasplantat-boshqa individdan**

Inson organlari va to‘qimalarini transplantasiya qilish — Hech qanday [tijorat](#) yoki g‘arazgo‘ylik maqsadlarsiz kelishilgan rozilik asosida insonning hayotligida yoki uning jasadidan organlar va to‘qimalarni tibbiy yo‘l bilan [jarrohlik](#) operatsiyasi yordamida amalga oshiriladigan jarayondir. Transplantatsiyaning eng keng tarqalgan turi qon quyishdir. Har yili millionlab bemorlarni davolash uchun qon quyish qo‘llaniladi. Organ transplantatsiyasi, qon quyishdan farqli o‘laroq, immun tizimini (immunitetni susaytiruvchi vositalar, shu jumladan kortikosteroidlar) va infeksiya ehtimoli, transplantatsiya qilingan organi rad etish va boshqa jiddiy asoratlarni, shu jumladan o‘limning oldini olishga qaratilgan katta jarrohlik muolajasidir. Hayotiy organi ishlamay qolgan bemorlar uchun transplantatsiya omon qolishning yagona imkoniyati sanaladi. Tirik donorlardan olingan to‘qimalar va organlar odatda sog‘lomligi sababli afzal hisoblanadi. Ko‘p

holatlarda ildiz hujayralari (suyak iligi yoki qondan) va buyraklar tirik donorlardan olinadi. Odatda, buyrakni donordan xavfsiz olish mumkin, chunki tananing ikkita buyragi bor va hatto bitta buyrak bilan ham normal ishlashga qodir. Tirik donorlar jigar, o'pka yoki oshqozon osti bezining faqat bir qismini berishlari mumkin. Tirik donorlardan olingan organlar odatda yig'ib olingandan keyin bir necha daqiqada transplantatsiya qilinadi.

1967 yildan buyon jahon bo'ylab 40 mingdan ortiq yurak ko'chirish operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Savol tug'iladi – a'zolari ko'chirish bo'yicha operatsiyalardan so'ng inson o'rtacha qancha vaqt yashaydi?

Bu borada ham albatta tadqiqotlar olib borilgan. Ma'lum bo'lishicha, buyraklar ko'chirilganda kamida 75 foiz bemorlar, jigarda 75–80 foiz, yurak ko'chirilganda 70 foiz atrofida 1 yil va undan ortiq umr ko'radilar.

Bir qarashda 1 yil oz muddat tuyulishi mumkin. Ammo o'sha 1 yil muddat eng murakkab davr hisoblanadi va organizm yangi a'zoni qabul qilib moslashishi uchun o'rtacha zarur davrdir. Qolaversa, transplantatsiya organizm o'lim yoqasida turgan bemorlarga qilinishi hisobga olinsa, bu muddatning ahamiyati darhol seziladi.

TARAFLAR KELISHUVI

Ikki taraf muvofiq kelgan taqdirda quyidagi shartlar asosida a'zoni ko'chirish amaliyoti mumkin bo'ladi:

1. Biror a'zosini hadya qiluvchi odamning a'zosi olinganda uning hayoti xavf ostida qolmasligi;
2. O'z a'zosini hadya qiluvchi odam ixtiyoriy ravishda bo'lishi, hech kim tomonidan majbur qilinmasligi;
3. A'zoning ko'chirilishiga sabab haqiqatan ham muhtoj bo'lgan bemorning kasalligi [tibbiyot](#) jihatidan faqat shu yo'l bilangina tuzalishi mumkin degan xulosaga kelingan bo'lishi;
4. A'zosi olinayotgan va yangi a'zo qo'yilayotgan ikki taraf uchun ham [jarrohlik](#) amaliyoti muvaffaqiyatli tarzda o'tishi va kutilgan natijaga erishilishi tajribalarda kuzatilgan va unga ishonch hosil qilingan bo'lishi zarur.

Transplantatsiya uchun donorlar

1. Ko'krak qafasi:
2. Yurak (faqat murda donor)
3. O'pka (murda va tirik donor)
4. Qorin bo'shlig'i:
5. Buyrak (murda va tirik donor)

6. Jigar (agar qisman jigar transplantatsiyasi zarur bo'lsa, o'likdan yoki bir nechta donordan butun jigar kerak bo'lsa, o'lik va donor)
7. Pankreas (faqat donorlar murda)
8. Ichak (murda va tirik donor)
9. Oshqozon (faqat donorlar murda)

10. Jinsiy organ (murda va tirik donor)

Ko'chirish mumkin bo'lmagan a'zolar:

* bir insonning nasli boshqasiga o'tishiga sabab bo'ladigan irsiy a'zolar, shu sifatlarni tashuvchi va [homilaga](#) sabab bo'luvchi a'zolar;

*insonning yashashiga bevosita bog'liq bo'lgan [yurak](#) kabi a'zolar;

*insonning to'kis yashashiga bilvosita bog'liq bo'lgan ko'z qorachig'i kabi a'zo

O'zbekistonda:

- 18 yoshga to'lmagan shaxslarga (bundan suyak iligini transplantasiya qilish hollari mustasno);
 - belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, shuningdek ruhiy holatning buzilishlariga (ruhiy kasalliklarga) chalingan shaxslarga;
 - qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga;
 - I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
 - homilador ayollarga;
 - shaxsi aniqlanmagan shaxslarga;
 - muayyan yashash joyi bo'lmagan shaxslarga;
 - „Mehribonlik“, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylarida yashovchi shaxslarga;
 - a'zosi va (yoki) to'qimalari ilgari transplantasiya uchun olingan shaxslarga.
- O'zbekiston fuqarosi chet davlat fuqarosi bo'lgan resipient uchun donor bo'lishi mumkin emas. Transplantasiya qilinadigan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekistondan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

Jigar inson organizmidagi qon ishlab chiqaruvchi, uni tozalovchi eng muhim organ. Shu bois ham ushbu tana a'zosi bilan bog'liq sirroz va boshqa terminal jigar kasalliklari dunyo tibbiyotida og'riqli muammolardan biri sifatida qaraladi.

Eng yomoni, mazkur xastalik O'zbekistonning mintaqaviy patologiyasi, hududimizda ko'p uchraydigan kasalliklar sirasiga kiradi. Ushbu dardni davolashning eng maqbul chorasi esa a'zo ko'chirib o'tkazish, ya'ni jigar transplantatsiyasidir.

Shu boisdan akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti o'rtasidagi hamkorlik memorandumini doirasida diffuz jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar sonini tahlil qilish yo'lga qo'yilgan.

Natijada har yili O'zbekistonda ushbu kasallikning klinik ko'rinishlari bilan Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasining maxsus bo'limida 5000 nafardan ziyod bemorlar ushbu kasallik bo'yicha davolanadi. Ulardan 500 nafari esa jigar transplantatsiyasiga potansial muhtoj bemorlardir.

O'zbekiston Respublikasida faqat yaqin qarindoshlar orasida buyrak va (yoki) jigar bo'lagini **transplantatsiya qilishga** yo'l qo'yiladi.

Buyrak va (yoki) jigar bo'lagini transplantatsiya qilish retsiyentga o'zining jabrlangan va hayot uchun muhim faoliyatini bajarolmasdan, uning sog'lig'iga qaytarib bo'lmaydigan asoratlarga olib kelayotgan buyrak va (yoki) jigar bo'lami o'rniga tirik **yaqin qarindoshlar orasidan sog'lom buyrak** va (yoki) jigar bo'lagini ko'chirib o'tkazish maqsadida bajariladigan **operativ amaliyotdir**.

Xulosa qilib aytganda transplantatsiya hayoti qil ustida turgan, lekin yashashdan umidi so'nimgan insonlar uchun najot yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

TALIM TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH: Siddiqov Nurali Nishonalievich, TDSI Izhtimoi fanlar bioetika kursi bilan katta o'qituvchisi

N.N.Siddiqov – Ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil

O'RTA VA KICHIK BIZNARLIK SOHASIDA YOSH EHKORLARNING IJTIMOY MAS'uliyati

N.N.Siddiqov - Sotsiosfera, 2020

Nurali Nishonalievich Siddiqov. "SONGNI SAGLASH TIZIMIDA "IZHTIMOII SHERIKCHILIK TJGRISIDA"GI KONUNIING URNI" Akademik tadqiqotlar ta'lim fanlari, jild. TSDI va TMA konferentsiyasi, №. 2, 2022, bet. 91-94.

Nurali Nishonalievich, S. (2022). TADBIRKORLARNING BUGUNGI AVLOLOGI YUKORI IJTIMOY MAS'uliyat sub'ekti sifatida: TADBIRKORLARNING BUGUNGI AVLOLOGI YUKORI IJTIMOY MAS'uliyat sub'ekti sifatida. Central Asian Journal of Innovations and Research, 4. <http://www.sciencepublish.org/index.php/cajir/article/view/187> dan olindi

Nigmatova A.N., Abdusapieva R.R., & Siddiqov N.N. (2023). OG'IZ SOG'LIGI BILAN BO'LGAN HAYOT SIFATI VA UNING KATTALARGA TA'SIRI. Innovatsiyalar: Ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar jurnali, 1(5), 84-87. doi: 10.5281/zenodo7569563